

KULOLCHILIK TERMINOLOGIYASINING ETIMOLOGIK VA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna

Far DU mustaqil tadqiqotchisi

Zilolamsmstqulova 1988@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada kulolchilik terminologiyasining etimologik va leksik-semantik xususiyatlari, Rishton kulolchilik terminlarining genezis asoslari yoritib berilgan. Qoshg'ariy, Rabg'uziy, Navoiy asarlarida qo'llangan kulolchilik terminlari lingvistik jihatdan tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Kulolchilik leksikasi, xum, kosa, oyoq, oyoqchi, piyola, tabaq, loy, kosa, ko'za, payola, ibriq, ajaq, jug'ri, sark, buqach

Rishton kulolchilik terminlarining genezisasoslari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bu terminlarining anchagina qismi adabiyotlarda, jumladan mumtoz adabiyot va qadimi yozma yodgorliklarda va folklorda uchraydi. Inson mehnat faoliyati bilan aloqador bo'lgan har qanday kasb o'tmishda ham, hozir ham o'z terminlariga ega bo'lgan. Umumiste'moldagi istalgan so'z kasb-kor yoki ilm-fan doirasida maxsuslashgan ma'noga ega bo'lishi mumkin. Masalan, loy, kosa, ko'za, piyola umumiste'moldagi oddiy so'zlar, ammo kulolchilik kasbi bilan shug'ullanuvchilar nutqida termin sifatida qo'llanadi. Kasb-hunar terminlarining tarixiy taraqqiyotini yoritish jihatdan ular maxsus tekshirishni talab etadi. Hozirda o'zbek tilidagi kasb-hunarga oid terminlardan bir qanchasi tilimiz taraqqiyotining qaysi davrlarida yuzaga kelganligini yetarli aniqlab bo'lmasa-da, eng qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda kasb-hunar leksikasining ba'zi terminlari uchraydi. Bu dalillar tilimizdagi kasb-hunar leksikasiga oid so'z- terminlarning bir qismi o'sha yodgorliklar yozilgan davrlardan ham ilgarigi davrlarda tilimizda bor so'zlar ekanligini ko'rsatadi, bu narsa til tarixi nuqtai nazaridan g'oyat muhimdir. Kulolchilik terminlarining genetik asoslari yozma adabiyotlarga tayanadigan bo'lsaak, 10-11 asrlarga borib taqaladi. "Kulolchilik leksikasida xum, kosa, oyoq, oyoqchi, piyola, tabaq kabi nomlar XIV—XV asrdagi o'zbek adabiyotida ham uchraydi. Mahmud Qoshg'ariyning „Devoni lug'oti turk“ asarida (XI asr) esa oyoq, kub kabi ayrim sopol buyum nomlari uchraydi."¹²⁰

Biz yig'gan kulolchilik termin va iboralarining ba'zilari kulollar leksikasi tarixiy taraqqiyotini o'rganishda muhim manba bo'lishi ham mumkin. Ammo

¹²⁰ Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. I - Тошкент: Фан, 1956 . 16- бет

biz kulolchilik terminlarini derevatsion o'sib kelish jihatdan keng va chuqur tekshirishni o'z oldimizga vazifa qilib qo'ymadik, balki asosan 19-21 asrdagi kulolchilik terminologiyasini tekshirib, ularning lisoniy jihatlarini jumladan, morfem tarkibini, boyish manbalarini, o'z yoki o'zlashgan qatlamga oidligini yoritishni, tematik tasniflashni, struktur tabiatini, morfologik belgilarini yoritishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz.

Turkiy xalqlar uchun qadimdan umumiylug'aviy xazina hisoblangan Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asari turli sohaga oid terminlarni uchratishimiz mumkin. Bu asar turkiy xalqlarning ilk lug'ati bo'lib, xalqimiz tarixidagi dialektologik, izohli, ernografik, va tarixiy- etimologik lug'atlar uchun xos bo'lgan barcha xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Asar nafaqat kulolchilik terminlari balki, kasb-hunar sohasiga taalluqli birliklarning vujudga kelishini tasqidiglovchi muhim manba sifatida tilshunoslar diqqatini tortgan. "Devoni lug'otit turk"da kishilik jamiyatni bilan bog'liq bo'lgan barcha kasb-hunar terminlari uchraydi.

Jumladan, olim izohlagan 7500 ta so'zlar ichida dehqonchilik, yog'ochsozlik, tikuvchilik, yilqichilik, kulolchilik, quruvchilik, asbob-uskuna, uy-ro'zg'or buyumlari, musiqa, bezak, qarindoshlik atamalari, o'simlik, kasallik, dori nomlari, ilmiy, diniy atamalar va bir qator birliklar o'rinni olgan. Dastlabki yozma ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, kulolchilik sohasiga oid birliklarning ilk namunalarini devonda uchratishimiz mumkin. Jumladan, Ajaqchi-kulol¹²¹ ajaqchi termini kasb-hunar egasi nomini bildirib, ajaq- naqishlangan, sirlangan kosa so'ziga -chi affiksini qo'shish yordamida xosil qilingan. Ajaqchi ajaq sirladi- kulol idish (kosa, lagan) ustiga gul solish, sirlash uchun tayyorgarlik ko'rdi. (DLT, 467-bet) bu hodisa shuni ko'rsatadiki, "... o'zbek tilidagi kasb-hunar nomlariga doir materiallar tahlilidan ko'rinadiki, turkiy tillarning ilk taraqqiyot bosqichlarida til sofligi tamoyiliiga amal qilingan, ayniqsa, leksik sathda, shuningdek, so'z yasalish sathida turkiy tillarning ichki imkoniyatlaridan foydalanilgan."¹²² Ichki manba orqali so'z yasashdan faol foydalanilgan. Aytish mumkinki, o'zbek kulolchilik terminlarining genezis asoslari aynan shu asrlarga borib taqaladi. Devonda mazkur birliklardan quyidagilariga sharh berib o'tilgan. 1. **Buqach** – sopol idish yoki sopol qozon. Ashich buqach ravishida ikki so'z birga qo'shib qo'llanadi. Qozon-idish (DLT 337-bet) 2. **Sark**- sopol idish va uning sinqlari. (DLT 333-bet) 3. **Ko'za-** ko'za(arg'ucha). (DLT 339-bet) 4. **Jug'ri-** lagan.

¹²¹ Махмуд Қошғарий. Девону луготит турк / 1-жилд. Таржимон ва нашрга тайерловчи Муталлибов С. - Тошкент, 1960. - Б. 550 бет

3. М. Алиева Миллий газлама дизайнерлиги терминларининг семантик-грамматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа докт... дисс. автореф. – Фарғона 2018. 68-бет

Maqolda shunday keltirilgan: ash tatig'i tuz, jug'riy jemas-osh tuz bilan totli, lekin lagan bilan yolg'iz tuzning o'zi yeyilmaydi. Bu maqol ishlarda aniq maqsadli bo'lishga undab aytildi. (DLT 38-bet) **5. Sir-** chinni kosalarni bo'yab naqshlash uchun yelimdan tayyorlab qo'llanadigan sir. (DLT 311-bet) **6. Ajaq-** naqishlangan, sirlangan kosa. (DLT 311-bet). Ajaq-idish; kosa; payola; o'g'uzlar buni bilmaydilar. Ular ajaq o'rniiga **janaq** deydilar (DLT 110-bet) **7. Ibriq-** ko'zacha. May ichiladigan jomrakli idish. Bu so'z talaffuzda ham, ma'noda ham arabchga to'liq mos keladi. Ibriq(may idish)ning boshi g'oz kabi tikkadir, qorni (may turadigan qismi) ko'z (kosasi) kabi to'lgan. Qayg'uni uning tagiga qo'ymaylik-u kecha kunduz shodlanaveraylik. (DLT 326-bet) **8. Idish** – qaddah; piyola; yag'mo tuxsi, yamak, o'g'uz va arg'ular tilida tos, obdasta tovoq, laganlarning hammasi "idish" deb yuritiladi. (DLT 90-bet) Yuqoridagi birliklardan ko'za, sir, idish kabi birliklar leksikonimizda faol qo'llansa, *ibriq*, *ajaq*, *jug'ri*, *sark*, *buqach* singrari terminlarning anglatgan ma'nosi va tushuncha saqlansa-da, vaqt o'tishi bilan so'z eskirib istorizmga aylangan birliklar hisobilanadi. Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarida kulolchilik sohasiga doir terminlardan: ayoq (may quyiladigan sopol idish), *kub* (xum), *oshich* (sopol ko'zacha)¹²³ kabi terminlarni uchratish mumkin.

Yuqorida qayd etilgan terminlarning ayrimlari hozirgi kunda ishlatilmasa-da, qadimda ham turkiy til hazinasining boy bo'lganligi va kulolchilik leksikasini o'tmishda qo'llanish shakllarini o'zida namoyon etadi.

Navoiy asarlarida kulolchilikka oid terminlarning yigirmaga yaqinini uchratish mumkin. Ular quyidagilar: Ayoq// ayog'-qaddah, jom, Dosh – xumdon, sopol idishlar pishiradigan o'txona, *Doshgarlik*– kulolchilik, *Doshxona* – g'isht, sopol va boshqa asboblar pishiradigan xumdon, *Ibriq* – suv idish; ko'za; obdasta, *Kayl*– g'alla o'lchaydigan sopol, *Ka's*– kosa, jom, may piyolasi, *Kashti* – kema shaklidagi may kosasi, *Kos*//*kosa*– kosa, qaddah; *Kosagarlik*– kosa yasovchi, kulol, *Kub*// *kup*– Xum; may quyiladigan katta sopol idish, *Ko'za* – xumdan kichikroq bandli sopol idish, *Ko'rga* – may idish; kata *kub*, may idishlar qo'yiladigan maxsus sandalcha, *Qadah*– kosa, piyola, may kosasi, *Kosagar* – kosa yasovchi kulol. Yuqorida qayd etilgan birliklar ichida *ibriq*, *dosh*, *ko'za* kabi birliklarni devonda ham uchratganmiz, demak, ushbu terminlar XI va XIV asrlarda birdek iste'molda bo'lган. ANATIL da qo'llangan kulolchilikka oid terminlardan *kosa*, *kosagarlik*, *ko'za*, *kosagar* singari birliklar hozirda kulollar nutqimizda faol qo'llanayotgan bo'lsa, ayoq, *doshgarlik*, *ibriq*, *kayl*, *ka's*, *kashti*, *kub*, *ko'rga* kabilari birliklar eskiran so'z sifatida tarixdan joy olgan.

¹²³ Киссаси Рабғузий. Икки жилдли. 1-2-жиллар. –Т.: Ёзувчи

Ko'rindiki, kulolchilik sohasiga oid terminlarni uzoq o'tmishda xalqimiz kundalik hayotida faol qo'llagan leksik qatlam birliklaridan biridir. Soha terminlarining ayrimlari o'z holicha, ayrimlari o'zgargan holda yozma manbalar hamda xalq og'zaki ijodi orqali bizgacha yetib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. I - Тошкент: Фан, 1956 . 16- бет
2. Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк / 1-жилд. Таржимон ва нашрга тайерловчи Муталибов С. - Тошкент, 1960. - Б. 550 бет
3. Алиева М Ўзбек миллий газлама дизайнерлиги терминларининг семантик-грамматик тадқики: Филол. фан. бўйича фалсафа докт... дисс. автореф. – Фарғона 2018. -Б. 16
4. Қиссаси Рабғузий. Икки жилди. 1-2-жилдлар. –Т.: Ёзувчи
5. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилди. 1-4 жилд. – Тошкент: Фан, 1983. – 656 б.